

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

7/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Umurqulov Kamoliddin

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI 9-12

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 13-22

Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna

SOVET DAVRIDA KITOV TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA
AMALIYOTLARI 23-30

Сабитова Коринна Сабировна

ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ 31-37

Vaxabov Azizjon Xamidovich

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKLARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA
ELCHILIK ALOQALARI 38-44

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI 45-51

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboyevna

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA TEXNIK SALOHİYATDAN FOYDALANISHNING
IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI 52-57

Самадов Салохиддин Исмаатович

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ..... 58-66

Хуррамов Азамат Файзуллаевич

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ 67-74

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Sharipov Abdukhakimjon Ziyotdinovich

YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVIY O'ZGARISHLAR
DINAMIKASI 75-80

Mustafaev Alimardon Alijonovich

THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT 81-89

Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich

"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" 90-95

Shadmanov Qurbon

FRENSIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH
G'OYALARI 96-101

Usmonov Farkhod Lapasovich

PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION 102-109

Atakulov Mavlonbek Saitkulovich

YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA
FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI 110-115

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Amanov Abdijabbor Sattarovich

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI 116-121

Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI 122-125

Hayitova Shohida Erkin qizi

KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR
TASNIFI 126-132

Qodirova Mukaddas Tog'ayevna

TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL 133-138

Aripova Aziza Xasanovna

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI 139-143

Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna

QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN
MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) 144-148

Axmedova Aziza Komilovna

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI 149-153

Зокирова Шахзода Нодиржон қизи

ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ 154-158

Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna

METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE 159-163

Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi

ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI..... 164-169

Negmatova Mumtozbeqim

UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR 170-174

Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi

O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN
LINGVOMADANIY BIRLIKLAR TAHLILI 175-178

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ismaylov Raxat Aminbayevich

NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY
MASALALARI 179-183

Сеитниязов Камарбек Парахатович

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ 184-191

Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич

ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА
НАЗОРАТИ 192-198

Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING

HUQUQIY ASOSLARI 199-210

Шокиров Ойбек Азизжон ўғли

ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ
ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ

АСОСЛАРИ 211-218

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'P
BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI 219-222

Rabbimova Nodira Tashtemirovna

FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING

PEDAGOGICAL APPROACHES 223-227

Саидова Камола Усканбаевна

КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
МЫСЛИ 228-233

Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ

ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ 234-239

Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ 240-245

Buronova Iroda

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI

RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI 246-250

Matyakubova Feruza Egamovna

ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND

MODERN EDUCATION 251-254

12.00.00-YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 10 September 2024
Accepted: 15 September 2024
Published: 25 September 2024

Article / Original Paper

CERTAIN THEORETICAL AND LEGAL ISSUES OF THE DIGITALIZATION OF LAW-MAKING ACTIVITIES

Ismailov Rakhat Aminbaevich,

Judge of the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan.

Abstract. The article emphasizes the importance of broad public discussion of draft regulatory acts using digital platforms such as the portal regulation.gov.uz and the simplification of access to legislative information through the national database lex.uz. Despite the significant positive aspects of digitalization, challenges are noted, including the need for further development of regulatory requirements and the adaptation of participants in the legislative process to new digital conditions. The conclusions highlight the importance of continuing research in the field of digitalization of law-making activities and developing strategies aimed at enhancing the efficiency and transparency of the legislative process in the context of the rapid development of digital technologies.

Key words: digitalization, law-making, legislation, information technology, digital technology, state governance, legal acts, social relations

NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

Ismaylov Raxat Aminbayevich,

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyasi

Annotatsiya. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun regulation.gov.uz portali kabi raqamli platformalardan foydalanish va lex.uz milliy ma'lumotlar bazasi orqali qonunchilik ma'lumotlariga kirishni soddalashtirishning muhimligi ko'satilgan. Raqamlashtirishning muhim ijobiy jihatlari qaramay, normativ talablarni yanada rivojlantirish va norma ijodkorligi jarayoni ishtirokchilarining yangi raqamli sharoitlarga moslashish zarurati bilan bog'liq muammolar ham qayd etilgan. Xulosada raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bir sharoitda normativ-huquq ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirish va qonunchilik jarayonining samaradorligi va shaffofligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish muhimligini ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, norma ijodkorligi, qonunchilik, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, davlat boshqaruvi, qonun hujjatlari, ijtimoiy munosabatlar

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N27>

Jamiyat hayotining shiddat bilan rivojlanishi, shubhasiz, axborot texnologiyalari, internet, umuman olganda, raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Jamiyat hayotida kechayotgan bu kabi o'zgarishlarni kuzatib borish, ularga munosib baho berish va o'z navbatida kerakli chora-tadbirlarni ko'rish davlatning ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Shu jihatdan, boshqa sohalar qatori norma ijodkorligi faoliyatining har bir bosqichi va yo'nalishini takomillashtirish, tezkor o'zgaruvchan ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini

chuqur o'rgangan holda ularni qonunchilikda samarali aks ettirish ishlari harqachongidanda dolzarblashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasi"da davlat organlari va tashkilotlarida axborot tizimlari va boshqa dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha rejalashtirilayotgan loyihalar to'g'risida ma'lumotlarni e'lon qilish masalalari belgilandi [1].

Qayd etish joizki, norma ijodkorligi jarayonini raqamlashtirish qonunchilikning yangi raqamli shaklini yaratishga olib keladi va bu ilg'or rivojlanish sari qadam bo'ladi. Jumladan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Raqamlashtirishdan maqsad-muddaomiz nima o'zi? Odamlarni rozi qilish, inson qadrini joyiga qo'yish, adolatni ta'minlas [2].

"Norma ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirish" tushunchasini norma ijodkorligi jarayonining barcha bosqichlarida, shu jumladan norma ijodkorligining barcha subyektlarida norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan va hosil bo'ladigan axborotni raqamli shaklga o'tkazish sifatida ta'riflash mumkin [3]. Norma ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirish shu darajada keng ko'lam va masshtabda amalga oshirilmoqdaki, ushbu jarayonni tizimli va chuqur tahlil qilish uchun bir qancha yo'nalishlarga ajratish vazifasini qo'yadi.

Axborot olish yo'nalishida. Norma ijodkorligi jarayonini raqamlashtirish haqida gap ketganda, avvalo, norma ijodkorligi faoliyati bilan shug'ullanadigan subyektlar faoliyatining o'zida o'zgarishlar talab etadi. Olimlarning fikriga ko'ra, "....qaror qabul qiluvchilar real vaqt rejimida qonun loyihasi ustida ishlarning borishini va norma ijodkorligi jarayonining turli bosqichlarida uning joriy holatini kuzatib borishlari mumkin bo'lgan maxsus boshqaruv paneli yaratilishi kerak" [4].

Shu sababdan, o'tgan yillar davomida bu borada bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimi joriy etildi. Jumladan, baholash mezonlari sifatida "Internet tarmog'ida rasmiy veb-saytning mavjudligi va undan foydalana olish", "Rasmiy veb-saytning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi" kabi ko'rsatkichlari o'rin olgan edi [5]. Natijada davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z rasmiy-veb saytlarini yaratish va faoliyatini yo'lga qo'yish masalalariga e'tibor qaratdi. Bundan tashqari, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, normativ hamda boshqa hujjatlar, shuningdek ularning ijro etilishining borishi to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy e'lon qilib borilishi kerak bo'lgan axborotlar jumlasiga kiritildi [6].

Shuningdek, norma ijodkorligi subyektlarining eng oliy namunasi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatiga ham raqamli texnologiya faol kirib kelganligini alohida qayd etish o'rinli. Xususan, Qonunchilik palatasida deputatning har bir qonun (qaror) loyihasini qabul qilish yoki rad etishdagi, senatorning har bir qonunni (qarorni) ma'qullash yoki rad etishdagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar Oliy Majlis palatalariga o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib boriladigan bo'ldi [7].

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini manfaatdor subyektlar bilan kelishish jabhasiga joriy etilgan raqamli texnologiya elementlarini ko'rsatish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 2019-yil 1-yanvardan boshlab Internet jahon axborot tarmog'ida pilot loyihasi sifatida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi sinov tariqasida ishga tushirildi [8]. Ushbu hujjatning qabul qilinishi bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, manfaatdor subyektlar bilan kelishish, qabul qilish va e'lon qilish bosqichlarida qog'oz formatidan to'liq voz kechish bo'yicha katta qadam qo'yildi deb aytishimiz mumkin.

Ushbu hujjatning o'ziga xos ijobiy jihati sifatida shuni aytish mumkinki, bunda raqamlashtirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilishi nazarda tutildi. Ya'ni 2019-yil 1-maydan 1-iyulga qadar — O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining hujjatlari loyihalarini manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqish va kelishishda Yagona elektron tizimning pilot loyihasi joriy etiladi hamda ularni Vazirlar Mahkamasiga kiritish belgilangan tartibda qog'oz ko'rinishida yoxud Yagona elektron tizim orqali elektron ko'rinishda amalga oshirilgan bo'lsa, 2019-yil 1-iyuldan 1-oktabrga qadar — Vazirlar Mahkamasi apparatida Yagona elektron tizimning pilot loyihasi joriy etiladi va unga ko'ra manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqilgan va kelishilgan (viza qo'yilgan) O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining hujjatlari loyihalari Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda ustuvor ravishda Yagona elektron tizim orqali elektron ko'rinishda kiritildi.

2019-yil 1-oktabrdan boshlab esa manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqilgan va kelishilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining hujjatlari loyihalari kelishish hamda keyinchalik qabul qilish uchun Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga faqat Yagona elektron tizim orqali elektron ko'rinishda kiritilish boshlandi.

Shubhasiz, ko'plab olimlar norma ijodkorligi ma'lum bir bosqichda to'xtab qolishi mumkin emasligi, balki ijtimoiy aloqalarning dinamikligi, jamiyat hayotida huquqiy tartibga solishni talab qiladigan yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishi tufayli doimo rivojlanishda ekanligini ta'kidlaydi [9].

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish borasidagi raqamlashtirish ishlarini olish mumkin. Norma ijodkorligining mazkur bosqichini raqamli texnologiyalarga ehtiyoji eng yuqori bosqich sifatida aytish mumkin. Sababi norma ijodkorligi faoliyati subyektlarining o'zaro, qolaversa fuqarolar bilan tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasi yuzasidan olib boradigan muhokamalarining qay darajada samarali va konstruktiv ruhda o'tishi ko'p tomonlama raqamli texnologiyalarga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Shu jihatdan, "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali – regulation.gov.uz" normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini keng jamoatchilik ishtirokida tezkor va qulay usulda muhokama qilish platformasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu

platformada bugungi kunda foydalanuvchilarning miqdori besh mingdan ortiq ekanligi ham fikrimizni tasdiqlaydi [10].

Imzolangan normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish borasidagi raqamlashtirish ishlarini aytish mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunida normativ-huquqiy hujjatlar e'lon qilinadigan rasmiy manbalar qatorida "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – lex.uz"ning ham qayd qilingani eng katta hodisalardan hisoblanadi. Sababi O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi O'zbekiston Respublikasining "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi PQ-2761-sonli "Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan faoliyat yurituvchi huquqiy axborot izlash tizimi bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlarni oson hamda qulay shaklda izlash va ular bilan tanishish imkonini beradi.

Raqamlashtirilgan ma'lumotni tahrirlash, saqlash va kompyuterlar o'rtasida osongina uzatish mumkin. Hozirgi kompyuterlarning yuqori quvvatini va ularning Internet orqali global tarmog'iga ulanishini hisobga olsak, bu juda katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash, saqlash va uzatish mumkinligini anglatadi [11].

Albatta, raqamlashtirishning ijobiy jihatlari bilan birga, ayrim e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan tomonlari ham mavjud. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, normalarning mazmuni va shakliga qo'yilgan talablarga rioya qilish, xolislik va shu kabi boshqa masalalarda raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellektning o'rnini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Biroq qanday salbiy xususiyatlarga yoki kamchiliklarga ega bo'lishidan qat'i nazar raqamlashtirish to'xtab qoladigan jarayon emas. Modomiki, raqamlashtirish tobora tezroq va kengroq qamrov olayotgan jarayon ekan, undan qochish emas, unga tayyor bo'lish, yangi texnologiyalarni nisbatan ertaroq sohaga tatbiq etish, va umuman olganda, o'ziga xos xususiyatlaridan foydalangan holda uning ijobiy jihatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan muhokamalar natijasida norma ijodkorligi jarayonini raqamlashtirish borasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Norma ijodkorligi jarayonini raqamlashtirishning kompleks nazariy asoslarini ishlab chiqish (monografiyalar, dissertatsiyalar ko'rinishida);
2. Norma ijodkorligi jarayonini raqamlashtirish nisbatan yangi hodisa bo'lganligi sababli mazkur munosabatlarni tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini konseptual-strategik darajada belgilash (Norma ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasi ko'rinishida)
3. Norma ijodkorligi faoliyati subyektlarining raqamlashtirish borasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
4. Javobgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 27.04.2024-y., 06/24/67/0307-son, 25.05.2024-y., 06/24/80/0364-son

2. <https://president.uz/uz/lists/view/5943>
3. В. А. Шаршун Автоматизированная информационная система «нормотворчество» как средство цифровизации нормотворческого процесса // доклады XIX Международной конференции, Минск, 19 ноября 2020 г. – С. 188
4. В.О. Макаров, Н.А. Бакланова, М.А. Бурдакова “Цифровизация нормотворчества как отдельный процесс перехода общества на новую ступень развития” // International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 12-2 (63), 2021. – С. 101
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 2-son, 17-modda, 28-son, 341-modda; 2015-y., 13-son, 155-modda, 26-son, 338-modda; 2016-y., 23-son, 269-modda; 2017-y., 38-son, 1037-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2017-y., 09/17/1013/0459-son; 15.04.2020-y., 09/20/218/0429-son; 31.10.2020-y., 09/20/674/1439-son
6. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 19-son, 209-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.08.2019-y., 03/19/559/3670-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2021-y., 06/21/6247/0563-son, 09.04.2022-y., 06/22/101/0288-son, 15.06.2022-y., 06/22/154/0524-son; 28.11.2023-y., 06/23/200/0896-son; 20.01.2024-y., 06/24/14/0052-son, 27.04.2024-y., 06/24/67/0307-son
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.04.2019-y., 09/19/284/2911-son; 27.06.2020-y., 09/20/411/1000-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son
9. E.Alekhina, S.Nadtoka “Digitalization of the legal regulation system: prospects and ways of development” // E3S Web of Conferences 537, 020. 2024. – P. 3
10. <https://regulation.adliya.uz/statistika>
11. E.Hilgendorf “Introduction: Digitization and the Law – a European Perspective” // Robotik und Recht. № 15. 2018. – P. 10

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).